

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV Hujjatlari saqlash va tadqiq qilishdagi xizmatlari	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'uchiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i> QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSİYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i> O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i> CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i> MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i> UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i> MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i> DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i> MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i> DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i> ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVİY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i> FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVİY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i> BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i> ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i> SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOYIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i> IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i> ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Hakimovich</i> EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i> MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i> HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i> ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i> INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i> BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i> XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i> VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i> RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i> YOSHLARDA IJTIMOY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i> IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i> SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i> MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH	290-296
<i>Babadjanova Nazokat Davronbekovna</i> "YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhreizoda Nasrulloevna</i> RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i> TIJORAT HUIJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i> TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i> PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i> OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i> THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i> USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i> TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i> KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i> SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZELOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i> MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Muxitdinova Firюза</i> КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloev Shavkat</i> INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxanovich</i> JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashev Sherzod Azimovich</i> JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i> BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna</i> IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIY TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i> RAQAMLI ERADA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEKNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i> EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Собиров Саидбек Махмудович</i> ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i> DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i> SUN'IY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktambov</i> KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i> XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i> МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Xazratoli Zokirjon o'g'li</i> JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i> SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> 7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i> IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Тлеумуратова Абадан Бекбановна</i> ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyyayev Oblaberdi</i> OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i> YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i> AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i> BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitara Axmatkulovna</i> QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025
Accepted: 1 February 2025
Published: 10 February 2025

Article / Original Paper

SPECIFIC FEATURES OF THE SOCIAL LIFE OF THE GYPSIES

Ruzieva Mashhura Abdimuminovna

Lecturer at Termez University of Economics and Service

E-mail: mashxura.ruziyeva@mail.ru

Abstract. Before studying a particular people, it is necessary to know the theoretical and methodological views that exist in this field of science. There are historical conditions that allowed each ethnosocial group to form. Based on this, the article analyzes the specific features of the social life of the Gypsies.

Keywords: history, nation, people, ethnic group, Gypsies, Surkhan oasis, ethnographic processes, traditions.

LO'LILAR IJTIMOY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Muayyan xalqni o'rganishdan oldin, bu boradagi fanda mavjud nazariy-uslubiy qarashlardan xabardor bo'lish talab etiladi. Har bir etnoijtimoiy guruhlarining shakllanishiga imkon yaratgan tarixiy shart-sharoitlar mavjud. Shundan kelib chiqib ushbu maqolada lo'lilar ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlari borasida tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tarix, millat, elat, etnik guruh, lo'lilar, Surxon vohasi, etnografik jarayonlar, urf-odatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N11>

Kirish. Etnik o'zlikni anglash bu – xalq hayot faoliyatidagi ongli tasavvurlarining birmuncha barqaror tizimi va mavjud milliy tarkibiy qismlarini baholashdan iboratdir. Ushbu tizimning shakllanishi natijasida inson o'zini etnik guruhning vakili sifatida anglaydi. O'zlikni anglashning barqarorligi va uning ijobiy yo'naltirilganligi shaxsning ijtimoiy guruhda ruhiy xavfsizlikni his qilishida asosiy omil hisoblanadi. Shuning uchun shaxs uni doimiy rivojlantirishga va himoya qilishga, uning jamoasi o'ziga xoslikni saqlab qolishiga xizmat qiladi.

O'rta Osiyoda o'zlarini mug'ati deb atagan lo'lilar guruhi ham yashashadi. Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida yashovchi lo'lilar ba'zan o'zlarini mo'ltoni deb ham atashadi. Ularning asosiy urf-odatlaridan va mashg'ulot turlaridan biri bu tilanchilik qilib yurishlari hisoblanib, mazkur odatni Hindistondan O'rta Osiyoga olib kelganlar. Lo'lilar ajdodlarining hind odatidan kelib chiqqan peshonasiga xol qilish odati O'zbekistonning janubida yashovchi lo'lilar orasida keng tarqalgan [2].

O'rta Osiyo mintaqasida lo'lilarning uzoq umr ko'rishlari haqida ta'kidlashgan, shuningdek, ularning uzoq vaqtdan buyon unutilgan tojik tilini so'zlashuv tili sifatida ishlatishi kabi faktlar ta'kidlangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'rta Osiyo lo'lilari ikki etnik guruhga bo'lingan: mazangi (mazang) va lo'li. Mazangi, asosan, Samarqand viloyati va shahrida XIX asr oxirlaridan

yashagan. Bu paytgacha ular Buxoroda yashaganlar. XIX asrning uchinchi choragida Samarqand yaqinida joylashgan ikki qishloqda 200 ga yaqin mazangi yashagan. Qishloq xo'jaligi, ularning asosiy mashg'ulotiga aylanib borgan [1].

Bundan tashqari, qabila vakillari Xiva hamda mintaqaning shaharlari va qishloqlarida kichik savdo bilan shug'ullanishgan. Ayollari xushmuomalalik va maxsus inoyat bilan ajralib turardi. Samarqanddan tashqari mazangi etnografik guruhi Toshkent va Qo'qon shaharlarida yashagan. Qo'qonlik o'lkashunos Po'latjon Qayumovning so'zlariga ko'ra, mahalliy lo'lilar «og'achi» deb chaqirilgan [2].

Mazanglarining eng kichik guruhlaridan biri (taxminan 500 kishi) etnograf X.X.Nazarov tomonidan o'tgan asrning o'rtalarida Andijon viloyatining Marhamat tumanida topilgan. O'rta Osiyo lo'lilarining yirik aholi manzilgohi Shahrisabz shahri atrofida ro'yxatga olingan. Mashhur san'atshunos L.Avdeyevning xabariga ko'ra, Shahrisabz shahri lo'lilaridan biri hatto musiqiy xor jamoasini tashkil etgan.

Etnograf J.R.Vinnikov ta'kidlaganidek, 1960-yillarda etnik jihatdan aralashgan aholi hududlarida kichik milliy guruhlarining etnik birlashishi jarayonlari kuzatildi. Shunday qilib, Samarqand va Buxoro viloyatlarida lo'lilar asta-sekin atrofdagi o'zbek aholisiga singishdi. Ammo shunga qaramay, davlat tomonidan amalga oshirilgan choralardan keyin ham lo'lilarning o'zlarining «to'xtatish» yiliga kamida bir necha oy ko'chib yurish, dunyoviy tashvishlardan bir muncha vaqt uzoqlashtirish, o'zlarini hech narsaga yuklamasdan yashash odati etnografik guruhlarining bir qismida saqlanib qoldi [4].

Muhokama va natijalar. Mamlakatimizda lo'li etnik guruhlariga bu xususiyatlardan uchasi, ya'ni yarmi to'g'ri kelib, ya'ni lo'lilar o'zlarining tarixiy vatanlari Hindistonni ma'lum sabablarga ko'ra tark etib, turli mintaqalarga borib joylashishgan. Lo'li guruhlar jamiyatda «biz» va «ular» degan qarashga egaligi. Bu holatni O'zbekiston lo'lilari misolida ham ko'rish mumkin. Lo'li guruhlar o'zining an'anaviy tili – mug'at tilini saqlashga harakat qilgan. O'zining ijtimoiy huquqlarini bevosita yoki bilvosita himoya qiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda lo'lilar mavzusi milliy-etnik siyosatining asosiy masalalaridan biri sifatida ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu omillar ham lo'lilarni diaspora sifatida e'tirof etilishiga yana bir asos bo'ladi. Dunyoning ko'pgina davlatlarida lo'lilarning dardabar hayot kechiruvchi etnik guruhlar bugungi kungacha saqlanib qolgan. Aksariyati, biror davlat fuqaroligiga ega emas va ular qadami yetgan joyni o'zining vatani, deb bilishadi. Ammo, O'zbekistonda lo'lilarning barchasi o'troq holatda o'tib, dardabar hayot tarzi saqlanib qolmagan.

Ma'lumki, qishloq va mahallalarda biqiq yoki tarqoq holda istiqomat qilib kelishadi. Ularning asosiy qismi O'zbekiston fuqarosi sanaladi va boshqa fuqarolar kabi teng huquqli majburiyatlarga egadirlar.

Milliy o'zlikni anglashni odatda ikki xil darajaga ajratish mumkin. Birinchi daraja – shaxsiy-psixologik bo'lib, bunda inson o'zini kichik jamiyatning, masalan, oilaning bir bo'lagi sifatida his qiladi. U orqali o'zining «men» ini anglaydi. Aynan, oilada hayot haqidagi dastlabki tasavvurlariga ega bo'ladi. Shuningdek, har bir xalqning o'ziga xosliklari misolida olib qaralsa, oila o'zga muhitda juda muhim sanalib, milliy qadriyatlarni ajdodlardan avlodlarga uzatuvchi vosita vazifasini bajaradi.

Ikkinchi, kengroq daraja – guruh, ijtimoiy-psixologik bo'lib, o'zlikni anglash jarayoni muayyan guruhda sodir bo'ladi. Kishining «men»i haqidagi tasavvuri o'zining aniq ijtimoiy

guruhga mansubligini anglashi orqali shakllanadi. Shuni ham inobatga olish lozimki, bunday holatda har bir xalqning vakillarida o'z-o'zini identifikatsiyalashda muammolar yuzaga kelishi ham mumkin. Chunki, ular bir tomondan o'zlarini tarixan qardosh xalqlarining qismi, deb his qilsalar, ikkinchi tomondan yashab turgan mamlakatlari va jamiyatlarining a'zosi, deb bilishadi[5].

Lo'lilar oilasiga tashrif buyurishganida, olimlar tadqiqot davrida hali qayd etilmagan, olib qochish odatini aniqlashgan. Tadqiqotchilar tomonidan lo'lilarning bu va boshqa urf-odatlarini, marosimlari ularning islomlashuvidan dalolat beradi.

Lo'lilar «O'rta Osiyo lo'lilari» tushunchasiga eng mos keladi. Samarqand va uning tumanlarida 500 ga yaqin lo'lilar bor edi. Bu yerda ularning to'xtash joylari bor edi. Yilning ko'p qismida ular har biri 10 tadan 20 tagacha chodirlardan iborat alohida lagerlarda yashashgan va yurishgan. Qishda ular mahalliy aholidan uylar yoki qo'shimcha binolarni ijaraga olishgan. Asosiy mashg'uloti otlarni ko'paytirish, sotish va almashtirish, yog'ochga ishlov berish hunarmandchiligi (yog'och qoshiq, finjon, turli xil uy anjomlari ishlab chiqarish). Ular sehr-jodu, an'anaviy tibbiyot bilan ham shug'ullanishgan.

Surxon vohasining Jarqo'rg'on, Sherobod tumanlarida yashayotgan lo'lilarning bosh bobosi Abduraim bobo asli buxorolik bo'lgan. O'sha yerlik lo'lilar bilan muammo chiqadi. Abduraim bobo 4 o'g'lini olib, bundan 100 yillar oldin Surxondaryo hududiga ko'chib keladi. Amakisi ularga qo'shib keladi. Amakining ismi Primberdi bo'lgan. O'g'illarining ismi Eshonberdi, Hazratqulberdi, Razzaqberdi (qorovul), Ulug'berdi. Sherobod va Jarqo'rg'on tumanidagi lo'lilar ularning avlodlari hisoblanadi. Sherobod tumanida Balxi dahasidan bo'lgan lo'lilar ham yashashadi. Ular Tojikistondan Afg'onistonga bir necha 100 yillar oldin ko'chib borishgan. Afg'onistondagi notinchlik sababli Sherobodga ko'chib kelishadi. Balxi dahasi degan nom shundan qolib ketadi [3].

Hozirgi kunda Afg'onistonda 1000 ta lo'li oilasi yashaydi. Ular 1920-yillarda o'lkani ruslar bosib olishi sababli Amudaryo orqali afg'on yeriga o'tib ketishgan. Tojikistondagi qardoshlar urushidan qochib ketganlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Afg'on lo'lilari balxi, qatag'on, ko'lobi, sagdoz, maston kabi urug'-aymoqlarga bo'linadi[5]. Surxondaryoning Sherobod tumanida balxi urug'idagi lo'lilar, Denov, Sariosiyo tumanidagi sagboz, ko'lobi urug'idagi lo'lilar yashashadi.

Sariosiyo, Uzun, Denov tumanidagi lo'lilar qo'shni Tojikiston orqali vohamizga ko'chib kelgan lo'lilar avlodidir.

Mazanglar va jo'gilar faqat o'z qabilasidan bo'lgan qizlarga uylanishgan va ular bugungi kunda bu odatni davom ettirishmoqda [6].

Surxon vohasida yashaydigan lo'lilar doimiy yashash joyidan ro'yxatdan o'tmasligi, pasport rejimiga amal qilmaslik natijasida turmush qurgan ko'pgina kelin-kuyovlarning nikohlari davlat organlari tomonidan qayd qilinmagan. Bunday oilalarning kelgusida tug'ilgan bolalarida ham tug'ilganlik haqidagi guvohnomalari bo'lmagan. Natijada, tug'ilganligi haqidagi guvohnomalari yo'q lo'li bolalarining ko'pchiligi maktabdan chetda qolgan.

Shuningdek, nikoh qog'ozlari hamda bolalarining tug'ilganligi haqidagi guvohnomalarining yo'qligi sababli ko'p bolali lo'li oilalari nafaqa olishmagan. Maktabdan chetda qolgan bolalarining ko'pchiligi, keyinchalik pasport ham olishmagan. Bu esa ko'plab lo'li yigitlarini harbiy xizmatdan chetda qolishlariga sabab bo'lgan. Tug'ilganligi haqidagi guvohnoma yoki pasporti yo'q savodsiz lo'lilarning korxona va tashkilotlarga ishga kirishi ham

qiyin masalaga aylangan. Yashash joylarida doimiy ro'yxatdan o'tmasdan yashaganliklari sababli, mahalliy davlat organlari nazoratidan chetda qolgan lo'lilarda bir qancha salbiy holatlar paydo bo'lgan. Lo'lilarda balog'at yoshiga yetmay turib, qurilayotgan oilalar bilan izohlash mumkin. Bunday salbiy ko'rinishlar yashash joyida ro'yxatdan o'tmaslikka, qurilgan nikohning davlat organlarida qayd qildirmaslik, tug'ilganligi haqidagi guvohnoma va pasportining yo'qligi kabi sabablar keyinchalik ham saqlanib qolingan.

Surxon vohasida tarqoq holda yashagan lo'lilardan farqli tarzda, to'p-to'p bo'lib yashaganlarda aralash nikohlar qurish juda sekin kechgan. Buning asosiy sababi to'p-to'p bo'lib yashagan lo'lilarning biqiq holatdagi turmush tarzi hisoblanadi. Ana shu biqiqlik natijasida turg'unlashgandan keyingi o'n yilliklarda ham lo'lilarning nafaqat atrofdagi mahalliy o'zbek yoki tojiklar bilan, balki ularning o'zaro ichki guruhlar o'rtasida ham aralash nikohlar qayd etilmagan [7].

Bir tomonlama aralash (er-lo'li, xotin-boshqa millat) nikohlar mavjud. Umuman olganda, aralash nikohlar lo'lilarda boshqa xalqlarga nisbatan juda kam miqdorni tashkil etadi. Vaholanki, etnik jarayonlarda aralash nikohlarning roli katta, zero etnosga o'zga qavm elementlarini olib kirishda faqat nikohgina eng qulay yo'llardan biri hisoblanadi. Lo'lilarda aralash nikohlarning kamdan-kam hollarda uchrashi lo'li elatining tusligiga sabab bo'ladi. Lo'lilar antropologiyasiga e'tibor beradigan bo'lsak, tub yerli aholisidan katta farq qiladi.

Lo'lilarda mavjud aralash nikohlarning ko'pchiligi 1970-1980-yillariga to'g'ri keladi. Mazkur yillarda lo'lilar orasida aralash nikohlarning paydo bo'lishiga asosiy sabab ularning turmush darajasining birmuncha yuksalishi hamda sobiq Ittifoqning turli hududlarida harbiy xizmatni o'tab qaytishda boshqa (ayniqsa, slavyan) millatga mansub qizlarni olib kelib nikohdan o'tishi hisoblanadi. Mazkur holatni yuqorida ko'rib o'tilgan denovlik lo'li Eshqo'ziyev Bozor misolida ko'rish mumkin[8].

Rus, tatar va boshqa mahalliy bo'lmagan qizlar lo'li yigitlarga harbiy xizmat o'tayotgan davrida ko'ngil qo'yib, ixtiyoriy ravishda turmushga chiqqanlar. Chunki, lo'li yigitlar ularga o'zlarini tojik yoki o'zbek deb tanishtirganlar. O'rta Osiyo lo'lilari haqida umuman tasavvurga ega bo'lmagan hamda ularni tojik yoki o'zbekdan ajrata bilmagan, bu qizlar aldanganliklarini ancha kech bilishgan. Ularning ayrimlari aldanganliklarini bilgandan keyin lo'li erlaridan ajrashib, yurtlariga qaytib ketganlar, ba'zilar baxtli hayot kechirishmoqda.

Ayrim tub yerli qizlarning lo'lilar bilan nikohlari sevgi-muhabbat asosida emas, aksincha, ilojisizlikdan vujudga kelgan. Etnografik dala materiallarida aniqlanishicha, yashash sharoiti juda ham xarob holatdagi Sherobod tumanidagi lo'lilarga erga teggan mahalliy qizlarning aksariyati uyidan haydalgan, yetim va borarga joyi yo'qlar tashkil etgan.

Lo'lilarning iqtisodiy hayotida hal qiluvchi omil xo'jalik mashg'uloti alohida ajralib turgan. Ular dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik turlari bilan juda oz miqdorda shug'ullanganlar. Asosan, o'zlarining hayot tarziga qulay hisoblangan aholiga tomoshalar ko'rsatish, tilanchilik, folbinlik, mayda savdo-sotiq, tabiblik orqali kundalik ehtiyojlarini qondirganlar).

Surxondaryo vohasidagi lo'lilar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ham qashshoq yoki o'rta hol hayot kechirishgan, aksariyat lo'lilar esa ot sotishgan (dallo)[3], zuluk solish[5], yog'ochlardan turli uy-ro'zg'or buyumlarini tayyorlash, panshaxa, ketmon, g'ildirak to'g'ini, g'ildirak gupchagini charxlash, do'ppi, belbog' tikish, qalaydan halqa yasash kabi mashg'ulotlar ortidan keladigan daromad hisobiga kun kechirishgan. Shu bilan bir qatorda zargarlik, paranji

uchun otning yolidan chachvon tayyorlash ham ular faoliyatining bir qismini tashkil etgan. Lo'lilarning musiqaga, raqsga, hayvonlarni o'rgatuvchilikka rag'batlari kuchli bo'lgan. Shu sababli bozorlarda, sayllarda, jamoat joylarida turli xalq tomoshalarini ko'rsatib, shuhrat qozonganlar. Ayollarning ko'pchiligi esa, xalq tabobati va tilanchilik bilan shug'ullanishgan. Bundan tashqari, lo'li etnik guruhlaridan biri mazanglar o'troq hayot kechirib, boshqa jamoa, guruhlaridan farqli tarzda, asosan, dehqonchilik qilib, ayollari turli pardoziy buyumlari savdosi bilan mashg'ul bo'lishgan[6].

Rossiya imperiyasi davridagi xabarlariga ko'ra, Turkiston lo'lilarning yashash tarzi Yevropa lo'lilariga o'xshab ketadi. Bir joyda hech qachon muqim yashashmagan. Lo'lilar janubiy Rossiya lo'lilari singari issiq kunlari shoh-shabballardan, qamishdan chayla qurib yashashadi. Qishloq yaqinlarida yalangliklarga joylashib bir necha kun-hafta yashashadi. Ot oldi-sotdisi bilan shug'ullanishadi. Yog'ochdan elak, tog'ora, qoshiq, piyola, tovoq va boshqa xo'jalik buyumlarini tayyorlashadi. Ayollari, asosan, folbinlik, xalq tabobati bilan shug'ullanishadi. Mol ayirboshlash bilan shug'ullanishadi. Qishda lo'lilar o'sha atrofdagi uylardan ijaraga joy olib yashashadi. Qishda ayollar va bolalar garchi ehtiyoji bo'lmasa ham yurib tilamchilik qilishadi. Yuz tuzilishlariga ko'ra lo'li erkaklari va ayollari Yevropa lo'lilariga o'xshab ketadi[9].

Jo'gilar Hisorni o'z yurtlari deb bilishadi. Hisor bekligining shimoliy-sharqiy qismida juda ko'pchilik jo'gilar istiqomat qilishadi. Jo'gilar dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Yog'ochdan qoshiq, tog'ora, lagan, ot uchun egar, belkuraklar, zargarlik buyumlari yasashadi. Ayollari esa do'ppi, belbog'lar tikishadi. Aholi ehtiyoji uchun kerak bo'lgan barcha narsani yasashadi. Lo'lilar ham, jo'gilar ham faqatgina, o'z urug'laridan bo'lgan qizlarga uylanishadi, lo'li va jo'gi yigitlariga turmushga chiqishadi.

O'tmishda lo'lilarning iqtisodiy ahvoli og'ir darajada bo'lgan va mulkiy tabaqalanish deyarli bo'lmagan. Barcha lo'lilar teng moddiy ahvolga ega bo'lib, asosan kundalik yashash ehtiyojlarini qoplash maqsadida hayot kechirganlar. Darbadar hayot kechirgan qavm vakillari qanday geografik, ijtimoiy, madaniy muhitda bo'lsalar, shu kasbni egallab borganlar. Masalan, lo'lilar geografik jihatdan daryo va suv havzalari yaqinida yashashgan bo'lib, zuluk sotish yoki bunday yerlarda majnuntol, terak va boshqa daraxtlarga mo'l bo'lganligi hisobiga yog'och buyumlar yasash hunari orqali hayot kechirganlar. Dasht hududlarida esa, ot savdosi va unga tegishli buyumlarni yasash asosiy kasb hisoblangan. Ijtimoiy jihatdan hunarmandlar orasida yashaganlar, turli hunarlarni egallashgan, savdogarlar orasida savdo-sotiq, dehqonlar orasida dehqonchilikni va hokazo. Madaniy muhitga qarab, lo'lilar ba'zan musiqachi, tomosha ko'rsatuvchi bo'lsa, ba'zan g'ayrioddiy kuchga ega folbin, tabib sifatida faoliyat ko'rsatganlar. Bu hunarlar, lo'lilar kundalik moddiy ehtiyojlarini qoplashning yagona manbai hisoblangan.

O'rta Osiyoda yashagan lo'lilar o'rta asrlardan beri savdo-sotiq, hunarmandchilik, xalq tabobati, tilanchilik bilan shug'ullanib, shahar va shahar atroflarida turg'un yashagan qismi juda oz sonli bo'lib, ayni vaqtda lo'lilarning ba'zilari hamon darbadar hayot kechirishda davom etmoqdalar.

Lo'lilar orasida zargarlar ko'p bo'lgan. Zargar lo'li erkaklar yasagan buyumlarni ayollar qishloqma-qishloq yurib yeguliklarga, ya'ni un, non, bug'doyga almashtirib kelishgan.

Shaharlar va ba'zi yirik qishloqlarda zargarlik ustaxonalari ishlay boshlagach, usta zargarlar shahar va qishloqlarning aholisi va ularning buyurtmalari asosida turli tuman taqinchoqlarni va bezaklarni (uzuk, bilakuzuk, sirg'a, baldoq, lativa ko'krakka va bo'yinga taqiladigan marjonlar) tayyorlab berganlar. Aksariyat zargarlar buyurtmachilarni kutib

o'tirmasdan o'zlari tayyorlagan zargarlik buyumlarini qishloqma-qishloq yurib sotgan yoki mol-mulkka, don-dunga almashtirganlar. Shu tariqa bu davrga kelib aholi o'rtasida bezak va taqinchoqlar yanada ommaviylashib boradi. Taqinchoq va bezaklar xotin-qizlarning yoshiga, kiyim rangiga, mato yo'liga va tikilish uslubiga qarab tanlangan va taqilgan. Ular taqilish o'rniga qarab turli guruhlarga bo'lingan, shunga qarab boshga, sochga, quloqqa, burunga, ko'krakka, bo'yinga, qo'lga taqiladigan va hokazo taqinchoq va bezaklar mavjud bo'lgan. Boshga taqiladigan taqinchoqlar turiga tillaqosh, silsila, mohitilla, xataba kabilar kirgan. Tillaqosh kumushdan ishlanib, bosh kiyim ustidan kiyilgan va qosh ustiga tushib turgan, shuning uchun ham tillaqosh deyilgan. Bu bezakni ko'proq suvli qishloqlar xotin-qizlari (chig'atoylar, toqchilar, turklar, lo'lilar) taqishgan.

Hukumat tomonidan xususiy mulk egalariga, tadbirkorlarga qarshi qaror chiqqandan keyin zargarlik uskunalari, o'sha davrda mavjud bo'lgan barcha zargarlik buyumlari yo'qotib yuborilgan[3]. Ma'lumgina qismi saqlanib qolgan. Lo'lilar ko'k rangni yaxshi ko'rishadi. Saqlanib qolgan taqinchoqlarda ko'k rangli feruza ko'zli zeb-ziynat buyumlari ko'pchilikni tashkil qiladi.

Lo'lilarning asosiy mashg'ulotlaridan yana biri yilqichilik bo'lib, ya'ni ot oldi-sotdisi, ot boqish bilan shug'ullanishgan. Ot yolidan o'zbek va tojik ayollari kiyadigan paranji uchun to'r to'qishgan. Lekin lo'li ayollari hech qachon yuzlarini berkitishmagan, ya'ni o'zlari tayyorlagan paranjini kiyishmagan [10].

Ayollar folbinlik va xalq tabobati bilan shug'ullanishgan. Mol shohi orqali harom qonlarni olib odamlarni davolashgan. Qon olish orqali bosh og'rig'i, qon bosimi ko'tarilishi, xafaqon kabi kasalliklarni bartaraf qilishgan. Ba'zi bir ayollar turmushga chiqqandan so'ng bir necha yil davomida bolali bo'la olishmaydi. Ixlos qilib lo'li tabiblarga murojaat qilishadi. Momolaridan qolgan odatlar bilan ularni davolashadi. Kindik tomirini ushlash, momolarga sig'inib 7 xil lattani salgina yoqqa namlab, yoqib najot so'rab kelgan kishining ustidan aylantirib «alas» qilish orqali davolash ishlarini amalga oshirishgan. Juda ko'p hollarda bu foyda bergan[5]. Erkaklar qishloq xo'jaligi anjomlari bo'lgan ketmon, belkurak yasashgan, ayollar do'ppi va belbog' tikishgan [6]. Erkaklar bajargan hunarlar tarixga aylanib qoldi. Sababini ular ehtiyoj yo'qligida deb bilishadi.

Xulosa. Surxondaryo vohasida lo'lilari turmush tarzi va mashg'ulotlari asrlar davomida atrofdagi xalqlarning etnomadaniyati ta'sirida o'zgarishlarga uchradi. O'rganilayotgan hududda lo'lilar turmush tarzi va kundalik mashg'ulotlaridagi o'zgarishlar ularning iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mehnat ko'nikmalari va yangi-yangi xo'jalik mashg'ulotlarini o'zlashtirish natijasida qashshoq va nochor lo'lilar qatlami keskin kamaya boshladi. Ilgari ular kam malaka va bilim talab etuvchi ishlarda ishlagan bo'lsalar-da, bugungi kunda maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash hamda ichki ishlar tizimida ham faoliyat olib bormoqda. Hozirda lo'lilar orasida mulkiy farqlanish sezilarli darajada ortgan. Chorvadorlar, ishbilarmonlar bilan bir qatorda o'rta hol oilalar, kambag'al oilalar ham mavjud.

An'anaviy turmush tarzida lo'lilarning o'zaro ichki nikohlari amalga oshirilgan bo'lsa, zamonaviy jamiyatda aralash nikohlar sezilarli darajada o'zgarganligini kuzatish mumkin. Chunki, boshqa millat vakillari bilan oila qurishga to'sqinlik qiluvchi omil – bu lo'lilarning tilanchilik mashg'uloti desak, xato bo'lmaydi. Turmush tarzida tilanchilik saqlanib qolmagan oilalarda aralash nikohlarning uchrab turishi sababi shunda. Shu bilan birga, lo'lilardagi erta nikoh, poligamiya (ko'p xotinlilik) butkul yo'qolgani yo'q. Buning sababi shundaki, uzoq yillar

davomida lo'hlarning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi jamiyat e'tiboridan chetda qolgan bo'lib, bu odatlarga chek qo'yish bo'yicha amaliy ishlar qilinmagan.

Adabiyotlar/Литературы/References:

1. «Туркестанские ведомости», 29 ноября 1875 года, №44.
2. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, Oqtepa qishlog'i, 2022 yil, avgust.
3. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, Oqtepa qishlog'i, 2022- yil; Denov tumani, Qoraxon qishlog'i, 2022-yil avgust.
4. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Sherobod qishlog'i, 2022-yil, avgust.
5. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Sherobod mahallasi 2022-yil avgust.
6. Винников Я. Р. Этнические процессы в Средней Азии I некоторая закономерность IX развития. (Тезисы докладов и обобщений Всесоюзного археолого-этнографического совещания по итогам полевых исследований). – Москва, 1972. – С. 72.
7. Гребенкин А.Д. Мелкие народности Заравшанского округа// Русский Туркистан. Сборник. Вып. II. – Москва: Университетская типография (Катков и К), 1872. – С.116.
8. Уфимцев В. Говорит он себе. –Москва, 1973. – С. 45.
9. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб.; Типографии императорской академии наук, 1843. – С.74.
10. Шубинский П. Очерки Бухары. -СПб.; Типография А.С.Суворина, 1892. – С.387.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).